

HUQUQIY SIYOSATNI SHAKLLANTIRISHDA ILMIY-TAHLILIIY TADQIQOTLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986465>

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy siyosatni shakllantirish jarayonida ilmiy-tahliliy tadqiqotlardan foydalanishning nazariy asoslari va zamonaviy tendensiyalari va huquqiy siyosatni ishlab chiqishda dalillarga asoslangan yondashuv, raqamli tahlil vositalari, komparativ-huquqiy metodlar, prognozlash texnologiyalari hamda ijtimoiy tadqiqot natijalaridan foydalanishning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: huquqiy siyosat, ilmiy-tahliliy tadqiqot, dalillarga asoslangan siyosat, normativ-huquqiy hujjat, huquq ijodkorligi, komparativ tahlil, raqamli texnologiyalar, huquqiy monitoring.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические основы и современные тенденции использования научно-аналитических исследований в процессе формирования правовой политики. Также анализируется значение применения доказательного подхода при разработке правовой политики, использования цифровых аналитических инструментов, сравнительно-правовых методов, технологий прогнозирования, а также результатов социологических исследований.

Ключевые слова: правовая политика, научно-аналитическое исследование, доказательная политика, нормативно-правовой акт, правотворчество, сравнительный анализ, цифровые технологии, правовой мониторинг.

Annotation. This article examines the theoretical foundations and modern trends in the use of scientific and analytical research in the process of legal policy formation. It also highlights the importance of applying an evidence-based approach in developing legal policy, the use of digital analytical tools, comparative legal methods, forecasting technologies, and the results of social research in the policy-making process.

Keywords: legal policy, scientific and analytical research, evidence-based policy, нормативно-правовой акт, law-making, comparative analysis, digital technologies, legal monitoring.

Kirish

Globalashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida huquqiy siyosatni shakllantirish jarayoni yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvida huquqiy siyosat nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, balki ularning ijtimoiy samaradorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda barqaror rivojlanishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois, huquqiy siyosatni ishlab chiqishda ilmiy-tahliliy tadqiqotlardan keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

An'anaviy yondashuvlarda huquq ijodkorligi ko'proq normativ-huquqiy bazani kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy bosqichda asosiy e'tibor huquqiy normalarning sifatiga, ularning amaliy samaradorligiga va prognozlash imkoniyatlariga qaratilmoqda.

Huquqiy siyosat davlatning huquqiy rivojlanish strategiyasini belgilovchi kompleks nazariy va amaliy faoliyatdir. Zamonaviy sharoitda huquqiy siyosatni samarali shakllantirish faqat normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish bilan cheklanib qolmay, balki chuqur ilmiy-tahliliy asosga tayanishni talab etadi.

Yuridik fan taraqqiyoti jarayonida turli metodologik paradigmalarni shakllangan bo'lib, ular huquqni turlicha talqin etadi va turli bilish uslublarini taklif qiladi. Bugungi kunda esa ushbu paradigmalarni kesishuvi sharoitida huquqiy siyosatni ishlab chiqish yangi postklassik metodologik asoslarni qayta talab qilmoqda[1].

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida huquqiy siyosat davlatning strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Huquqiy siyosatning samaradorligi esa, avvalo, uning qanday metodologik asosga tayanishiga bog'liqdir. Yuridik fan tarixiy taraqqiyot jarayonida turli paradigmalarni boshdan kechirdi. Ushbu paradigmalarni huquqni tushunish, talqin qilish va amaliy qo'llash usullarini belgilab berdi. Bugungi kunda huquqiy siyosatni shakllantirish jarayoni aynan ana shu metodologik transformatsiyalar bilan chambarchas bog'liq.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Huquqiy siyosatni ilmiy asosda ishlab chiqish uchun, eng avvalo, huquqning ontologik va epistemologik mohiyatini anglash zarur. Chunki huquqni qanday tushunish huquqiy siyosatning mazmuni va yo‘nalishini bevosita belgilaydi.

Yuridik germenevtika huquqni, avvalo, matn sifatida anglaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, huquq normativ hujjatlar, sud qarorlari va boshqa huquqiy manbalarda ifodalangan ma‘nolar tizimidir. Huquqni bilish esa ushbu matnlarni to‘g‘ri talqin qilish orqali amalga oshiriladi. Germenevtik yondashuv huquqiy siyosatda normativ-huquqiy hujjatlarning aniqligi, terminologik izchilligi va talqin imkoniyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Chunki noto‘g‘ri yoki mavhum ifodalangan norma siyosiy qarorlarning noto‘g‘ri qo‘llanishiga olib kelishi mumkin. Demak, huquqiy siyosatni shakllantirishda germenevtik metod huquqiy matnlar sifatini ilmiy ekspertiza qilish orqali muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik neokantianizm (aksiologik yondashuv) huquqni qadriyatlar tizimi bilan bog‘laydi. Bu paradigma doirasida huquq faqat norma emas, balki ma‘lum bir ijtimoiy qadriyatlarining ifodasidir. Adolat, erkinlik, tenglik kabi kategoriyalar huquqiy siyosatning mazmunini belgilaydi. Ilmiy-tahliliy tadqiqotlar bu yerda huquqiy qarorlarning qadriy asoslarini aniqlash va baholashga xizmat qiladi. Natijada huquqiy siyosat faqat texnik tartibga solish vositasi emas, balki jamiyatning ma‘naviy yo‘nalishini belgilovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy pragmatizm esa huquqni amaliy natijalar orqali baholaydi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, norma qanchalik samarali ishlashi bilan qadrlanadi. Bu paradigma huquqiy siyosatda empirik tadqiqotlar, monitoring va statistik tahlilning ahamiyatini oshiradi. Huquqiy qarorlar amalda qanday natija berayotgani o‘rganilmas ekan, siyosat ilmiy asoslangan deb hisoblanmaydi. Shunday qilib, pragmatik metodologiya huquqiy siyosatni dinamik, moslashuvchan va natijaga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi.

Yuridik pozitivizm huquqni normativ tizim va huquqiy fakt sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv huquqiy siyosatda aniqlik, tizimlilik va formal mantiqiylikni ta‘minlaydi. Biroq uning cheklangan jihati shundaki, u huquqning ijtimoiy va madaniy omillarini yetarlicha hisobga olmaydi. Shu sababli zamonaviy huquqiy siyosat faqat pozitivistik asos bilan cheklanib qolmaydi.

Huquqqa madaniy-tarixiy yondashuv huquqni jamiyatning ma‘naviy tajribasi va madaniy qadriyatlari mahsuli sifatida talqin qiladi. Bu paradigma huquqiy siyosatni ishlab chiqishda milliy mentalitet, tarixiy tajriba va huquqiy madaniyatni hisobga olish zaruratini asoslaydi. Universal modellarni ko‘r-ko‘rona qabul qilish ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkinligi aynan shu yondashuvda isbotlanadi.

Sotsiologik yurisprudensiya huquqni manfaatlar muvozanatini ta‘minlovchi institut sifatida ko‘radi. Bu yerda huquqiy siyosat ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-tahliliy tadqiqotlar ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvini o‘rganish va huquqiy mexanizmlarning real ta‘sirini baholashga xizmat qiladi.

Yuridik postmodernizm huquqni hokimiyat va diskurs mahsuli sifatida baholaydi. Bu yondashuv huquqiy matnlarni dekonstruksiya qilish, yashirin ma‘no va hokimiyat munosabatlarini aniqlashga qaratilgan. Postmodern paradigma huquqiy siyosatda universallik da‘volarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy yurisprudensiya postklassik bosqichga o‘tmoqda. Bu bosqichda huquqning ko‘p o‘lchovlilik, nisbiyligi va ijtimoiy shartlanganligi tan olinadi. Noaniqlik tamoyiliga ko‘ra, huquqiy jarayonlarni to‘liq prognoz qilish imkonsizdir. Shuning uchun huquqiy siyosat qat‘iy va o‘zgarmas emas, balki moslashuvchan bo‘lishi kerak.

Bir-birini to‘ldirish prinsipi esa huquqiy haqiqatni anglashda yagona metod yetarli emasligini ko‘rsatadi. Normativ tahlil, sotsiologik tadqiqot, iqtisodiy baholash va madaniy kontekst birgalikda qo‘llanilishi zarur. Bu metodologik plyuralizm huquqiy siyosatning ilmiy asoslanganligini ta‘minlaydi.

Lingvistik burilish huquqni belgi-ramziy tizim sifatida talqin qiladi. Huquqiy siyosatda til va normativ formulalarning aniqligi ijtimoiy reallikni shakllantirish vositasiga aylanadi.

Huquqning nisbiyligi esa uning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligini anglatadi. Huquq mustaqil va “sof” tizim emas, balki siyosat, iqtisod, madaniyat va psixologiya bilan o‘zaro ta‘sirida mavjud.

Dialoglik tamoyili postklassik metodologiyaning markaziy g‘oyasidir. Huquqiy siyosat davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot mahsuli sifatida shakllanishi kerak. Jamoatchilik muhokamasi, ekspert xulosalari va ilmiy tadqiqotlar huquqiy siyosatni legitimlashtiradi.

Huquqiy siyosatning samaradorligi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati, ularning real ijtimoiy ta‘siri va amaliy natijalari bilan belgilanadi. Zamonaviy yondashuvda huquqiy

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

siyosat faqat norma yaratish jarayoni emas, balki ilmiy asoslangan, prognoz qilinadigan va doimiy nazorat ostidagi boshqaruv mexanizmi sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan ilmiy ekspertiza, normativ-huquqiy hujjatlar ta’sirini baholash (Regulatory Impact Assessment – RIA) hamda monitoring mexanizmlari huquqiy siyosat samaradorligini ta’minlovchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Ilmiy ekspertiza huquqiy siyosatni shakllantirish jarayonining dastlabki va eng muhim bosqichlaridan biridir. U normativ-huquqiy hujjat loyihasining ilmiy asoslanganligini, ichki mantiqiy izchilligini, amaldagi qonunchilik tizimi bilan uyg‘unligini va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Ilmiy ekspertiza jarayonida hujjatning konseptual asoslari, huquqiy texnikasi, terminologiyasi, kolliziyalar ehtimoli va qo‘llash mexanizmlari baholanadi. Bu jarayon, avvalo, yuridik nazariya, sotsiologiya, iqtisodiyot va boshqa fanlar yutuqlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Ilmiy ekspertiza huquqiy siyosatda subyektiv yoki siyosiy motivlarga asoslangan qarorlar qabul qilinishining oldini oladi, normaning sifatini oshiradi va huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, konstitutsiyaviylik, inson huquqlariga muvofiqlik va xalqaro standartlarga moslikni tekshirish ekspertizaning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar ta’sirini baholash, ya’ni Regulatory Impact Assessment (RIA), huquqiy siyosatni dalillarga asoslangan shakllantirishning zamonaviy instrumentidir. RIA – bu normativ hujjat qabul qilinishidan oldin yoki keyin uning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy va huquqiy oqibatlarini tizimli tahlil qilish jarayonidir. Mazkur mexanizm huquqiy tartibga solishning muqobil variantlarini taqqoslash, xarajat va foyda nisbatini aniqlash, manfaatdor tomonlarga ta’sirini baholash imkonini beradi. RIA orqali ortiqcha ma’muriy yuklamalar, tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi normalar yoki samarasiz tartibga solish mexanizmlari aniqlanadi. Bu esa huquqiy siyosatda resurslardan oqilona foydalanish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va tartibga solish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

RIA jarayoni odatda muammoni aniqlash, maqsadlarni belgilash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ularning ehtimoliy oqibatlarini baholash va eng maqbul variantni tanlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy huquqiy siyosatda RIA nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki inson huquqlari, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat kabi omillarni ham hisobga olishni nazarda tutadi. Shunday qilib, RIA normativ ijodkorlikni ratsional va prognozga asoslangan faoliyatga aylantiradi.

Monitoring mexanizmlari esa qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotdagi real ta’sirini doimiy kuzatish va tahlil qilishga qaratilgan. Monitoring huquqiy siyosatning dinamik xususiyatini ta’minlaydi, chunki har qanday norma ijtimoiy hayotda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Amaliyotda norma qanday qo‘llanayotgani, sud amaliyotida qanday talqin qilinayotgani, fuqarolar va tashkilotlar uchun qanday oqibatlariga olib kelayotgani monitoring orqali aniqlanadi.

Monitoringning samarali ishlashi uchun statistik ma’lumotlar tahlili, sotsiologik so‘rovlar, sud amaliyoti umumlashtiruv va ekspert xulosalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon huquqiy siyosatning “teskari aloqasi”ni ta’minlaydi, ya’ni normativ tartibga solish mexanizmi jamiyat ehtiyojlariga qanchalik mos kelayotganini ko‘rsatadi. Agar norma kutilgan natijani bermasa yoki salbiy oqibatlariga olib kelsa, monitoring natijalari asosida unga o‘zgartirish kiritiladi yoki bekor qilinadi. Shu tariqa huquqiy siyosat statik emas, balki doimiy takomillashib boruvchi tizimga aylanadi.

Ilmiy ekspertiza, RIA va monitoring mexanizmlari o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlardir. Ilmiy ekspertiza normativ hujjatning nazariy va konseptual asosini mustahkamlasa, RIA uning ehtimoliy ta’sirini oldindan baholaydi, monitoring esa real natijalarni tahlil qilib, huquqiy siyosatni qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ushbu uch mexanizm birgalikda huquqiy siyosatning ilmiy asoslanganligi, shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Zamonaviy davlat boshqaruvida aynan shu instrumentlar orqali huquqiy siyosat sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Huquq endilikda faqat tartibga solish vositasi emas, balki ijtimoiy rivojlanishni boshqarishning ilmiy asoslangan mexanizmiga aylanmoqda. Shu bois huquqiy siyosat samaradorligini oshirishda ilmiy ekspertiza, normativ-huquqiy hujjatlar ta’sirini baholash va monitoring tizimini institutsional darajada mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy huquqiy siyosatni shakllantirish jarayoni an’anaviy normativ yondashuvdan keskin farq qiladi. Endi huquqiy siyosat nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni, balki ilmiy asoslangan, prognozga tayangan va ijtimoiy ehtiyojlarga mos boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa ilmiy-tahliliy tadqiqotlarni nafaqat qo‘llab-quvvatlash, balki siyosatning samaradorligini oshirishning markaziy vositasiga aylantirmoqda. Zamonaviy tendensiyalar dalillarga asoslangan siyosatni ustuvor qilmoqda. Shu yondashuv huquqiy qarorlarni qabul qilishda empirik ma’lumotlar, statistik tahlillar, ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqot natijalari hamda amaliy monitoring natijalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Dalillarga asoslangan yondashuv orqali huquqiy siyosat

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

nafaqat normativ asosda, balki uning ijtimoiy ta’siri va natijadorligini prognozlashga imkon beradigan mexanizmga aylanadi. Shu maqsadda Regulatory Impact Assessment (RIA) mexanizmi keng qo‘llanilmoqda. RIA normativ hujjat qabul qilinishidan oldin uning ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy oqibatlarini tizimli ravishda baholashni ta’minlaydi. Bu jarayon huquqiy siyosatning samaradorligini oshirish, ortiqcha byurokratik yuklarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Zamonaviy ilmiy-tahliliy tadqiqotlarda raqamli tahlil va katta ma’lumotlar (Big Data) vositalari ham muhim o‘rin egallaydi. Sud qarorlari, huquqiy amaliyotlar, onlayn so‘rovlar va boshqa ma’lumotlar bazalari avtomatlashtirilgan tahlil orqali qayta ishlanadi, bu esa huquqiy normalarning ijtimoiy ta’sirini real vaqt rejimida kuzatish va prognozlash imkonini beradi. Shu bilan birga, komparativ-huquqiy tahlil ham dolzarb trend hisoblanadi. Xorijiy davlatlarning tajribasini o‘rganish va milliy huquq tizimiga moslashtirish orqali huquqiy siyosatni strategik jihatdan kuchaytirish va ilg‘or yondashuvlarni joriy etish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqiy siyosatni shakllantirishda ilmiy-tahliliy tadqiqotlardan foydalanish zamonaviy yurisprudensiyaning metodologik transformatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Klassik paradigma normativ aniqlikni ta’minlagan bo‘lsa, noklassik yondashuv ijtimoiy omillarni e’tiborga olishni kuchaytirdi, postklassik paradigma esa huquqning nisbiyligi va dialogik mohiyatini asoslab berdi.

Zamonaviy huquqiy siyosat metodologik plyuralizmga, empirik tahlilga, inson markazli yondashuvga va ijtimoiy dialogga tayanishi lozim. Faqat shundagina u jamiyat ehtiyojlariga mos, ilmiy asoslangan va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayakubov. Sh. Ilmiy (huquqiy) tadqiqot metodologiyasi (O‘quv qo‘llanma) TDYU-TOSHKENT – 2022.
2. OECD. Regulatory Impact Analysis: Best Practices in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 1997.
3. Habermas J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge, MA: MIT Press, 1996.
4. Одилқориев Х.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti – huquqiy monitoring va normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi bo‘yicha materiallar: www.minjust.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, lex.uz.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston: rivojlanish va qonun ustuvorligi yo‘lida. Toshkent: Ma’naviyat, 2021.